

#### **4 Mavzu: Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari.**

##### **Reja:**

- 1 Fermer xo'jaligi faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va boshqarish asoslari.
- 2 Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari
- 3 Dehqon xo'jaligi faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va boshqarish asoslari.
- 4 Agrofirma faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va boshqarish asoslari.

**Kalit so'zlar:** Fermer xo'jaligi, ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi, dehqon xo'jaligi, agrofirmalar

##### **Foydalangan adabiyotlar.**

###### **Asosiy adabiyotlar**

13. Samatov G'.A., Rustamova I.B., Sheripbayeva U.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti.- T.: 2012. - 346 b.
14. Umrzoqov O'.P., Toshboyev A.J., Rashidov J., Toshboyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti: o'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod - moliya, 2008. - 268 b.
15. Qosimova D.S. Menejment nazariyasi: o'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2009. - 208 b.

###### **Xorijiy adabiyotlar:**

16. Charles W. L. Hill, Steven L. McShane. Principles of Management. 13th ed. ISBN 978-0-07-353012-3. -New York, 2008. -529 p.
17. Richard L.Daft. Management. 12th ed. ISBN 978-1-285-86198-2. -Boston, 2016. - 798 p.
18. Rickky W. Griffin. Fundamentals of Management. 8th ed. ISBN 978-1-285-84904-1. -Texas, 2016. - 547 p.
19. Ronald D. Kay, William M. Edwards, Patricia A.Duffy. Farm management. - 6th ed. ISBN 978-0-07-302829-3 - ISBN 0-07-302829-0. -New York, 2008. - 463 p.

###### **Qo'shimcha adabiyotlar**

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 oktyabrdagi "O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PF-4478- sonli Farmoni.
14. Nazimov S., Eshonxo'jayev D. Qishloq xo'jaligida menejment. Namangan, NamMPI, 2001.

###### **Internet saytlari**

20. [www.samqxi.uz](http://www.samqxi.uz) - Samarqand qishloq xo'jalik instituti veb-sahifasi
21. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
22. [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com) - Axborot agentligi.
23. [www.agro.uz](http://www.agro.uz) - O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi.

## **1 Fermer xo'jaligi faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va boshqarish asoslari.**

Respublika qishloq xo'jaligida davlat rahbarligida, bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida mulkning xilma-xil turlari va ularga asoslangan korxonalar turlari shakllangan. Jumladan, xususiy mulkga asoslangan fermer xo'jaliklari tashkil etilmoqda. Yangi taxrirdagi "Fermer xo'jaliklari to'g'risida"gi qonunning 3-moddasida, "Fermer" xo'jaligi ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'yektdir", deb tushuncha berilgan. Hozirgi davrda

fermer xo'jaligi qishloq xo'jaligida xo'jalik yurituvchi sub'yekt sifatida kichik, tadbirkorlik vakili hisoblanadi. Fermer xo'jaligi zimmasiga quyidagi vazifa qo'yilgan. Ya'ni uzoq muddatga ijaraga olgan yerlardan, mavjud bo'lgan barcha resurslardan yil davomida oqilona, to'liq va samarali foydalanish natijasida ichki va tashqi bozor talablarini qondiradigan miqdorda, sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, iste'molchilarga holda yetkazish hamda turli xildagi xizmatlar ko'rsatish oqibatida ko'proq foyda olish. Bu fermer xo'jaligining siyosiy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy maqsadidir. Uni to'liq hal etish uchun fermer xo'jaligi bir qancha muhim vazifalarni amalga oshirishni belgilab oladi:

- 30 yildan 50 yilgacha ijaraga olingan yer uchastkasida, shu haqdagi shartnomaga va ixtisoslashuvga muvofiq o'z ishlab chiqarish faoliyatini to'g'ri tashkil etish;

- xo'jalik faoliyatini yuritish maqsadida amalga oshirilishi zarur bo'lgan barcha tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning sifati, o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlaydigan turli xildagi kontraktasiya shartnomalarini to'g'ri va sifatli tuzish;

- ekologik talablarga va atrof muhitni muhofaza qilishning barcha qoidalariga rioya etishga erishish;

- ijaraga olingan yer uchastkalarini yil davomida oqilona, to'liq, samarali foydalanish maqsadida uning unumdorligining oshirilishini ta'minlaydigan irrigatsiya-melioratsiya tadbirlarini ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish hamda ularni vaqtida, sifatli amalga oshirilishini ta'minlash;

- xo'jalik faoliyatini samarali yuritish uchun talab etilgan mablag'larning miqdorini belgilash va ularning manbalarini oqilona aniqlash, xo'jalikda mavjud bo'lgan barcha resurslardan samarali foydalanishini ta'minlaydigan tadbirlarni aniq ishlab chiqish va ularni hayotga tadbiq etilishiga erishish;

- xo'jalik ustavida ko'zda tutilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirishga qaratilgan tadbirkorlikni qo'llab, ularga kamroq mehnat, mablag' sarflash yevaziga ishlab chiqarish, ularni iste'molchilarga sifatli holda yetkazib berish, xizmatlarni ko'rsatish, mulkni mustaqil, o'z hohishiga ko'ra tasarruf etish;

- tuzilgan kontraktasiya shartnomalariga muvofiq davlat ehtiyojlari (paxta, don) uchun qishloq xo'jaligi mahsuloti nazarda tutilgan miqdorda, sifatda yetkazib berilishini ta'minlash;

- harid qilinadigan mahsulotga oldindan haq to'lanadigan fyuchers kontraktlari tuzish;

- marketing ishlarini amalga oshirib, sotadigan barcha turdagi davlat buyurtmasidan tashqari bajarayotgan ishlari va ko'rsatayotgan xizmatlariga erkin narx belgilash;

- o'z faoliyatining barcha sohalarida fan yutuqlarini, yangi texnika hamda samarali texnologiyalarni izchillik bilan hayotga tadbiq etish;

- barcha xodimlarining bilim va malakasini davr talabini e'tiborga olgan holda oshirish, ularni ma'naviyatli, ma'rifatli, halol, pok, muomalali yaxshi insonlar bo'lishini ta'minlashi, ular mehnatining natijasiga qarab moddiy va ma'naviy rag'batlantirish;

- soliqlar, yig'malar va boshqa majburiy to'lovlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'z vaqtida to'liq to'lash;

- tadbirkorlik faoliyatini huquqiy va me'yoriy hujjatlar asosida yuritish, ko'proq pul daromadlarni olish, ularni mustaqil tasarruf etish, xajmi cheklanmagan miqdorda sof foyda olish, unga erkin egalik qilish va samarali foydalanish;

- aksiyalar va turli xildagi qimmatli qog'ozlarni olish;

- kichik biznes korxonalarini uchun yaratilgan imtiyozlar va preferensiyalarning barcha

turlaridan imkoniyat doirasida to'liq va samarali foydalanish;

- o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya etish uchun sudga murojaat etish, zarur bo'lgan hollarda fermer xo'jaligini davlat bosh islohotchi, qonun ustivorligi, erkinlik hamda mustaqillik va boshqa tomonlari asosida amalga oshirsa, samarali bo'ladi.

Respublikada fermerlikni rivojlantirishning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy mohiyati quyidagilarga qaratilgan:

- qishloqda turli turdagi mulk shakllarini va ularga egalik qilish, foydalanuvchi korxonalarini tashkil etish, yuritish va rivojlantirish;

- tarmoqdagi barcha mulkiy munosabatlarni shakllantirish, rivojlantirish, modernizatsiyalashtirish hamda erkinlashtirish;

- turli mulkchilikga asoslangan sub'yektlarning erkin faoliyat ko'rsatishi uchun huquqiy, me'yoriy, iqtisodiy sharoitlarni yaratish;

- qishloqdagi mulkdorlar sinfining mulkiy ongini barqaror yuksaltirish;

- qishloq xo'jaligida yangi ish joylarini barpo etish, tarmoqdagi aholini ish bilan bandligini yuksaltirib, ishsizlar sonini kamaytirish;

- aholining va qayta ishlash sanoati korxonalarini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlashni yuksaltirish;

- aholining daromadini ko'tarish, ularning turmush darajasini yuksaltirish va boshqalar.

O'zbekistonda fermer xo'jaliklarini tashkil etish quyidagi ikki xil tartibda amalga oshirilmoqda:

- birinchisi, mehnat resurslari bo'lmagan yoki kam bo'lgan yerlarda va hududlarda:

- ikkinchisi, uch yil davomida rentabellik darajasi past bo'lgan shirkat xo'jaliklari negizida tashkil etiladi. Ikkala usulda ham fermer xo'jaligini uni bo'lajak rahbari tashkil yetadi. U o'zining mol-mulkini ko'rsatishi zarur. Fermer xo'jaligining iqtisodiy negizini uning mol-mulki tashkil yetadi, unga quyidagilar kiritilishi mumkin:

- fermer xo'jaligining nomi;

- fermer xo'jaligi boshlijining familiyasi, o'zining va otasining ismi va yashash joyi;

- fermer xo'jaligining joylashgan joyi to'g'risidagi ma'lumotlar va pochta manzili;

- fermer xo'jaligining ixtisoslashuvi va faoliyatining asosiy turlari, yo'nalishlari;

- uning ustav fondining miqdori va boshqalar.

Fermer xo'jaligi tegishli loyihada nazarda tutilgan yerni o'z hisobidan o'zlashtirayotgan davrda va yer o'zlashtirib bo'linganidan keyin besh yil davomida yerning mazkur o'zlashtirilgan qismi uchun yagona yer solig'i to'lashdan ozod etiladi.

Fermer xo'jaliklarini boshqarishni uning rahbari amalga oshiradi. Boshqaruv jarayonida rahbar bir qator huquq va majburiyatlarga ega.

Fermer xo'jaligi quyidagi huquqlarga ega:

> berilgan yer uchastkasida o'z ustavida nazarda tutilgan ixtisoslashuviga va ijaraga olish shartnomasiga muvofiq fermer xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish;

> ixtisoslashuvni hisobga olgan holda va tuzilgan kontraktasiya shartnomalari asosida qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirishni amalga oshirish;

> harid qilinadigan mahsulotga oldindan haq to'lanadigan f'yuchers kontraktlari tuzish;

> yetishtirayotgan mahsuloti, bajarayotgan ishlari va ko'rsatayotgan ishlariga narx belgilash;

> elektr energiyasi, yoqilg'i-moylash materiallari mineral o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari yetkazib berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi yuzasidan shartnomalar tuzish;

> tadbirkor faoliyatidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq solinadigan, cheklanmagan miqdorda daromad (foйда) olish;

> olgan daromadlarini (foydasini), bank muassasasidagi o'zining hisobvaraqlarida bo'lgan pul mablag'larini tasarruf etish;

> aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar olish;

> kreditlar olish, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini hamda

boshqa mol-mulkini shartnoma asosida jalb etish hamda ularni ishlab chiqarishga va takror ishlab chiqarishga yo'naltirish;

> kreditlar olish uchun o'z mol-mulkini, shuningdek yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo'yish;

> kichik hamda xususiy korxonalar uchun berilgan imtiyozlar va preferensiyalarning barcha turlaridan foydalanish;

> zarur asbob-uskunalar, ishlab chiqarish vositalari hamda boshqa mol-mulkni olish, ijaraga olish, binolar va inshootlar qurish hamda ularni ta'mirlash;

> o'z huquqlari va qonuniv manfaatlarini himoya qilish uchun sudga muroioat etish.

Fermer xo'jaligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Fermer xo'jaligining quyidagi majburiyatlari mavjud:

- yer uchastkasidan qonun hujjatlarida va ijaraga olish shartnomasida ko'rsatilgan shartlar asosida, belgilangan maqsadda, samarali va oqilona foydalanilishini ta'minlashi;

- ekologik talablarga va atrof-muhitni muhofoza qilishning boshqa qoidalariga rioya etishi;

- yer uchastkasining meliorativ holatini yaxshilash, uning unumdorligini saqlab qolish va oshirish tadbir-choralarini ko'rish, biznes-rejada shu maqsad uchun mablag'lar ajratilishini nazarda tutishi;

- agarda ijaraga olish shartnomasida boshqa muddat belgilangan bo'lmasa, yer uchastkasi berilgan vaqtdan e'tiboran bir yil ichida undan foydalanishga kirishi shi;

- tuzilgan kontraktasiya shartnomalariga muvofiq davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsuloti nazarda tutilgan hajmlarda yetkazib berilishini ta'minlashi;

- g'o'za va don ekinlarini navlar bo'yicha joylashtirishning belgilangan talablariga rioya etish;

- suv resurslaridan suvdan limit bo'yicha foydalanish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq foydalanish;

- xo'jalik ichidagi meliorativ tarmoqni tozalab va ta'mirlab turishi;

- yer uchastkasini saqlash shartlariga va servitutlarga rioya etishi;

- o'z xodimlari uchun havfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlashi;

- soliqlar, yig'implar va boshqa majburiy to'lovlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'z vaqtida to'lashi;

- qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirishda agrotexnika talablariga rioya etishi;

- qishloq xo'jaligi o'simliklarining zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan muhofoza qilinishini ta'minlashi shart.

Fermer xo'jaligi zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Binolar, inshootlar, qishloq xo'jaligi ekinzorlari va ko'chatzorlari, dov-daraxtlar, chorva-mollar, parrandalarga yetishtirgan mahsulotiga, qishloq xo'jaligi inventar, asbob-uskunalar, transport vositalari, pul mablag'lari, intellektual mulk ob'yektlariga, shuningdek, fermer xo'jaligining balansidagi boshqa mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi fermer xo'jaligiga qarashlidir.

Fermer xo'jaligi boshlig'ining pul va moddiy mablag'lari, tovarlarni realizasiya qilishdan (ishlar bajarishdan, xizmatlar ko'rsatishdan) olingan daromadlar (foyda), qimmatli qog'ozlardan kelgan daromadlar, qonunlarda ta'qiqlanmagan boshqa manbalar fermer xo'jaligining mol-mulkini shakllantirish manbalari bo'lishi mumkin.

Fermer xo'jaligi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mol-mulkni yaratish, ko'paytirish, olish, ijaraga yoki vaqtincha foydalanishga olish huquqiga ega.

Fermer xo'jaligining mol-mulki qonun hujjatlariga muvofiq meros qilib qoldiriladi. Xo'jalikda faoliyatni davom ettirayotgan merosxo'rlar merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma berilganligi uchun davlat boji to'lashdan ozod etiladilar.

## **2 Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 oktyabrdagi "O'zbekistonda fermerlik

faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PF-4478- sonli Farmoni Respublikamizda huquqiy asosi sifatida ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarining shakllanishini jadallashtirdi. Unda quyidagilarga e'tibor qaratilgan:

“ Qayd etib o'tilsinki, mustaqillik yillari mobaynida qishloq xo'jaligi sohasida bozor munosabatlarini joriy etish va xususiy mulkchilik shaklini rivojlantirishga yo'naltirilgan iqtisodiy islohotlar bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Fermerlikni rivojlantirish, fermer xo'jaliklarining iqtisodiy va moliyaviy mustaqilligi uchun mustahkam huquqiy asoslar va kafolatlarni yaratib beruvchi Yer kodeksi, “Fermer xo'jaligi to'g'risida”gi Qonun hamda boshqa qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Fermer xo'jaliklarining yer, suv va moddiy-texnika resurslaridan yanada oqilona foydalanish hisobiga ishlab chiqarish hajmlari muttasil oshib borishini, fermer xo'jaliklari samaradorligi va rentabelligi o'sishini ta'minlash imkonini beradigan moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularning yer maydonlarini maqbullashtirish borasidagi kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Qishloqda fermer xo'jaliklariga barcha zarur xizmatlarni ko'rsatayotgan zamonaviy ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasi shakllantirilmoqda.

Qishloq xo'jaligi yerlarining uzoq muddatli ijara mulki qilib berilishi va qishloqda bozor munosabatlarining joriy qilinishi fermer xo'jaliklarini shakllantirish hamda rivojlantirishning eng muhim omili va asosi bo'ldi, buning natijasida yerga va ishlab chiqarilayotgan mahsulotga haqiqiy egalik tuyg'usi mustahkamlandi.

Mamlakatda fermerlik harakati qishloq xo'jalik mahsulotlarining asosiy ishlab chiqaruvchisiga hamda agrar sohani va u bilan bog'liq bo'lgan boshqa tarmoqlarni hamda ishlab chiqarishlarni yanada rivojlantirish, shuningdek, aholining turmush darajasi va sifatini oshirish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan qudratli ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib bormoqda.

Birinchi navbatda gap fermer xo'jaliklarini yanada takomillashtirish va ularning samaradorligini oshirish, huquq va vakolatlarini kengaytirish, yer-suv resurslaridan va yaratilgan ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishda, qishloqni jadal rivojlantirish va obodonlashtirishda, aholi bandligi va farovonligini ta'minlashda ularning rolini kuchaytirish to'g'risida bormoqda.

Shuni e'tirof etish kerakki, hozir amalda bo'lgan fermerlik harakatini tashkil qilish va boshqarish tizimi, xususan, Fermer xo'jaliklari uyushmasi va uning hududiy tuzilmalari faoliyati qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini isloh qilish va uning mahsuldorligini oshirish jarayonlariga hamda fermerlik oldida turgan vazifalarni tezkorlik bilan hal qilishga sust ta'sir o'tkazmoqda.

Hozirgi sharoitda fermerlik harakati oldida turgan jamiyatni demokratlashtirishni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni yanada isloh qilish va liberallashtirish, mamlakat agrar sektorini barqaror va samarali rivojlantirishning, aholi farovonligini oshirishning eng muhim bo'g'ini sifatida fermer xo'jaliklarining roli va ahamiyatini oshirish vazifalarining fermerlik harakati tomonidan ro'yobga chiqarilishini ta'minlash maqsadida:

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va tumanlar hokimliklarining g'oyat muhim vazifalari deb hisoblansin:

- qishloqda ijara munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini tashkil qilishning yetakchi bo'g'ini va shakli sifatida fermer xo'jaliklarining huquqlari, manfaatlari himoya qilinishi va samarali faoliyat yuritishini ta'minlash;

- fermerlikni tashkiliy jihatdan mustahkamlash, fermer xo'jaliklarining o'zini o'zi boshqarish ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, ularning davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, tayyorlov, ta'minot va xizmat ko'rsatish tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlarini takomillashtirish;

- fermer xo'jaliklarining iqtisodiy mustaqilligi va moliyaviy barqarorligini oshirish, fermerlarning yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va qishloq xo'jalik xomashyosini kompleks qayta ishlash, shuningdek, qishloqda yangi ishlab chiqarishlar va xizmat ko'rsatish sohaslarini tashkil qilish hamda rivojlantirish hisobiga

mexanizatsiyalash darajasi va rentabellikni oshirishdan manfaatdorligini rag'batlantirish"<sup>1</sup>.

O'zbekistonda fermer xo'jaliklari mavjud bo'lgan huquqiy va me'yoriy hujjatlar asosida rivojlantirilmoqda. 2016 yilning 1 yanvariga kelib, fermer xo'jaliklarining umumiy soni 76 mingtani tashkil etib, ularga 3666,4 ming gektar yer uzoq muddatga foydalanish uchun ijaraga berilgan. Shu yerlarda 794,3 ming kishi faoliyat ko'rsatib qishloq xo'jaligida etishtirilgan yalpi mahsulotning 17,0 foizini (2015 yil) yaratganlar.

Fermer xo'jaliklarining rivojlanishini shartli ravishda 4 davrga bo'lish maqsadga muvofiqdir.

1 - davr - 1989-1998 yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga oladi.

2 - davr - 1998 yildan 2001 yillardan tashkil topgan.

3 - davr - 2002 yildan boshlandi.

4 - davr - 2008 yildan boshlangan hisoblanadi.

Birinchi va ikkinchi davrlarda fermer xo'jaliklari asosan jamoa hamda shirkat xo'jaliklarining hududida mehnat resurslari bo'lmagan yoki kam bo'lgan hududlarda tashkil etilgan. O'sha davrlarda qishloqlardagi fuqarolarning bilimi, tajribasi hamda iqtisodiy resurslari kam bo'lganligi munosabati bilan fermer xo'jaliklarining rivojlanish darajasi pastroq bo'lgan.

Davlatning turli xildagi iqtisodiy mexanizmlarni ishga solgan holda fermer xo'jaliklariga ko'maklashishi maqsadida muvofiqdir. Chunki, ularga davlat mulki xisoblangan yer uzoq muddatga ijaraga beriladi. Shunday ekan ijaraga berilayotgan yer va shu yerlardagi barcha irrigasiya va meliorasiya inshootlari sifatli, talabga javob beradigan xolatda fermer xo'jaliklariga berilishi lozim deb o'ylaymiz. Shuning bilan birgalikda turli xildagi korxonalar, tashkilotlar, mulkdorlar orasida tarjibot, tashviqot ishlarini keng ko'lamda amalga oshirib, ularni fermerlik harakatiga jalb etish lozim. Bunda ularga ko'rsatilayotgan xizmatlari uchun ma'lum darajada imtiyozlarni joriy etish mumkin. Jumladan, fermer xo'jaliklarida etishtirilayotgan mahsulotlar bilan, hamda soliq va bojxona to'lovlar borasida imtiyozlar berish zarur.

Hozirgi davrda aksariyat tumanlarda xokimliklar tomonidan fermer xo'jaliklarida ekinlarni samarali, ya'ni almashlab yekishni joriy etilishini ta'minlash maqsadida ekinlarni joylashtirishda hamda davlat buyurtmalarini belgilashda fermerlarga qonun doirasida erkinlik berilayotgani yo'q. Shuning oqibatida fermer xo'jaligiga ajratilayotgan barcha yerlarga paxta hamda donli ekinlar yekilmoqda. Bunday xol so'zsiz birinchidan, asoslangan almashlab yekish sxemasining joriy etilishini ta'minlash imkoniyatini bermaydi, ikkinchidan esa fermer a'zolari o'zlarining qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondira olmaydi. Shunday holatning oldini olish uchun fermer xo'jaliklariga ekinlarni joylashtirishda qonun doirasida erkinlik berish maqsadga muvofiqdir. Shuning bilan birgalikda fermer xo'jaliklariga paxta xom ashyosi va g'alla bo'yicha berilayotgan davlat buyurtmalarini qisqartirish lozim.

Respublika qishloq xo'jaligida fermerlik xo'jalik yuritishning yeng istiqbolli va samarali shakli ekanligini e'tiborga olgan holda kelajakda "... fermerlikni rivojlantirish borasidagi ishlarni chuqurlashtirish va ko'lamini kengaytirish muhim ustuvor vazifa" ekanligini Prezident I.A.Karimov alohida uqtirgan.

Fermerlikni rivojlantirishga ustuvorlikning berilishi asosan quyidagi holatlar bilan isbotlanadi;

- jahon tajribasida, respublikada fermer xo'jaligi qishloqda xo'jalik yuritishning asosiy shakli hisoblanganligi;

- fermer yerlarni uzoq muddatga ijaraga olib, yerdan foydalanish huquqiga barqaror ega bo'layotganligi;

- fermer mulk yegasi bo'lib, unga egalik qilish hamda foydalanishni erkin, mustaqil ravishda amalga oshirayotganligi;

- fuqarolar ongida fermerlik harakatiga ishonchning barqaror ravishda o'sib borayotganligi;

- fermer yuridik shaxs hisoblanib, barcha munosabatlarni shartnomalar asosida amalga oshirilayotganligi;

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida. PF-4478- son. 22.10.2012.

- davlat buyurtmasidan ortiqcha ishlab chiqargan barcha turdagi mahsulotlarni erkin sotish imkoniyatiga egaligi;
- fermer tadbirkorlik faoliyati natijasida olayotgan pul daromadlarini va sof foydasini mustaqil tasarruf yetayotganligi va boshqalar.

### **3 Dehqon xo'jaligi faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va boshqarish asoslari.**

Dehqon xo'jaligi ichki iste'mol uchun va mayda tovar qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan bog'liq kichik tadbirkorlik faoliyati sirasiga kiradi. O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonunining 1-moddasida dehqon xo'jaligiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Dehqon xo'jaligi oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti etishtiradi va realizatsiya qiladi".

Dehqon xo'jaligi ixtiyoriylik asosida, xo'jalik boshlig'ining qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) boshqaruviga yoxud boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari ish beruvchisi (ma'muriyati)ga hamda tuman hokimiga yozma murojaatiga asosan tashkil etiladi.

Qishloq xo'jaligi korxonasi yuqori boshqaruv organining korxonada dehqon xo'jaligini tashkil etish to'g'risidagi qarori asosida yer uchastkalari berish masalalarini ko'rish bo'yicha tuman komissiyasining xulosasini inobatga olgan holda tuman hokimi dehqon xo'jaligini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan shaxsiy yordamchi xo'jaliklarini dehqon xo'jaligi maqomiga o'zgartirish O'zbekiston Respublikasi «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi Qonunining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-iyuldagi 300-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Faoliyat ko'rsatayotgan shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni dehqon xo'jaliklariga o'zgartirish tartibi»ga muvofiq amalga oshirildi.

Fuqaro ixtiyoriy ravishda shaxsiy yordamchi xo'jaligini dehqon xo'jaligiga o'zgartirishni so'rab shirkat xo'jaligi boshqaruviga yoxud boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasa va tashkilotlarning ish beruvchisiga (ma'muriyatiga) hamda tuman hokimiga ariza taqdim etadi.

Yer uchastkasi konturi va maydoni ko'rsatilgan ariza va shirkat xo'jaligi umumiy majlisining qarori asosida hamda yer uchastkalari berish masalalarini ko'rish bo'yicha tuman komissiyasi xulosasini e'tiborga olgan holda tuman hokimi shaxsiy yordamchi xo'jaligini dehqon xo'jaligiga o'zgartirish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Dehqon xo'jaligini davlat ro'yxatiga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 20-avgustdagi "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi 357-qarori va shu qaror bilan tasdiqlangan "Tadbirkorlik sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to'g'risida NIZOM"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Huquqiy shaxs maqomiga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklari tuman hokimligida davlat ro'yxatidan o'tadilar. Buning uchun ular tuman hokimligi qoshidagi Inspeksiyaga quyidagi xujjatlarni taqdim etishi lozim:

1. Ariza
2. Qishloq xo'jaligi korxonasi boshqaruv organining dehqon xo'jaligini tashkil etish to'g'risidagi qarori.
3. Notarial tasdiqlangan Ustavning ikkita asl nusxasi.
4. Vakolatli shahar (tuman) hokimiyati organlari tomonidan berilgan xo'jaligi nomini tasdiqlovchi hujjat.
5. Hokimiyat qarori bilan tashkil etilgan tanlov komissiyasining yer uchastkasi berish haqidagi qarori.
6. Muhr va shtampning uch nusxadagi eskizi.
7. Huquqiy shaxs maqomiga ega bo'lmagan dehqon xo'jaligini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun beriladigan arizaga quyidagilar ilova qilinadi:
  - qishloq xo'jaligi korxonasi boshqaruv organi yoki ish beruvchisi (ma'muriyati)ning

dehqon xo'jaligini tashkil etish to'g'risidagi qarori.

-pasport nusxasi.

Tuman hokimligining dehqon xo'jaligini davlat ro'yxatiga olish to'g'risidagi qarori yoki ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risidagi qarori ariza berilgan kundan boshlab 7 (etti) ish kunida, tuman hokimligining dehqon xo'jaligini davlat ro'yxatiga olish to'g'risidagi qarori bilan bir paytda qabul qilinadi. Shundan so'ng tuman hokimligi yangi tashkil etilgan dehqon xo'jaligiga «Davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida»gi guvohnoma va tuman hokimiyati muhri bilan tasdiqlangan «ro'yxatga olingan» belgisiga ega ta'sis xujjatlarini hamda muhr va shtamp tayyorlashga ruxsatnomani topshiradi. Ushbu tartib huquqiy shaxs maqomida tashkil etiladigan dehqon xo'jaliklariga taalluqlidir. Dehqon xo'jaligi belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan paytdan e'tiboran tashkil etilgan deb hisoblanadi.

Dehqon xo'jaligining qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan faoliyat turlari quyidagilardan iborat:

- o'ziga berilgan tomorqa yer uchastkasida mustaqil ravishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, qayta ishlash va saqlash;

- o'zi yetishtirgan mahsulotni o'z xohishi bo'yicha ichki va tashqi bozorlarda sotish, mahsulotga mustaqil ravishda narx belgilash huquqini tasarruf etish;

- tayyorlov va qayta ishlash tashkilotlari bilan kontraktatsiya shartnomalarini, shu jumladan, xarid etiladigan mahsulotga oldindan haq to'lanadigan fyuchers bitimlari tuzish;

- tadbirkorlikdan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq solinadigan, cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olish;

- o'z mol-mulkini, shuningdek tomorqa yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini, shu jumladan, kim oshdi savdosi asosida sotib olingan huquqni garovga qo'yish.

- faoliyatning qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turlarini amalga oshirish.

Qonunga muvofiq dehqon xo'jaligi ma'lum bir majburiyatlarni bajarishni o'z zimmasiga oladi:

- tomorqa yer uchastkasidan qat'iy belgilangan maqsadda foydalanish;

- tabiiy ob'yekt bo'lmish yerga zarar etkazmaslik;

- atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalariga rioya etish;

- yangi berilgan tomorqa yer uchastkasidan, agar qonun hujjatlarida boshqa muddat belgilangan bo'lmasa, bir yil ichida foydalanishga kirishish;

- agrotexnika talablariga, belgilangan rejim, saqlash vazifasi va servitutlarga rioya etish;

- dehqon xo'jaligining majburiyatlari va qarzlari bo'yicha to'la javobgar bo'lish;

- xo'jalik a'zolari uchun xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlash va boshqa qonunda tutilgan huquq va majburiyatlar.

Dehqon xo'jaligi o'ziga qarashli uy-joylar, xo'jalik imoratlari, ekinzorlar va ko'chatzorlar, dov-daraxtlar, chorva mollari, texnika, jihozlar, asbob-uskunalar, transport vositalari, pul mablag'lari, intellektual mulk ob'yektlari, shuningdek boshqa mol-mulkning, faoliyat natijasida yetishtirilgan mahsulotning, olingan daromadning (foydaning) va qonunda taqiqlanmagan asoslarda olingan boshqa mol-mulkning egasi hisoblanadi

Dehqon xo'jaligi a'zolarining pul va moddiy mablag'lari, tovarlarni sotishdan, ishlar bajarishdan, xizmatlar ko'rsatishdan, shuningdek faoliyatning boshqa turlaridan olingan daromad (foyda), qimmatli qog'ozlardan olingan daromadlar, kreditlar, yuridik va jismoniy shaxslarning beg'araz xayriya va boshqa badallari, ehsonlari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar dehqon xo'jaligi mol-mulkining shakllantirish manbalari sifatida chiqishi mumkin.

Dehqon xo'jaligiga meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilishga berilgan tomorqa yer uchastkalari xususiylashtirilishi va oldi-sotdi, garov, hadya, ayriboshlash ob'yekti bo'lishi mumkin emas. Dehqon xo'jaligi boshlig'i vafot etgan taqdirda, tomorqa yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi shu xo'jaligi a'zolarining o'zaro kelishuvi asosida, dehqon xo'jaligi faoliyatini davom ettirish istagida bo'lgan xo'jaligi a'zolaridan biriga meros bo'yicha o'tadi.

Birinchi marta tomorqa uchastkasi olgan dehqon xo'jaligi davlat ro'yxatiga olingan paytdan

e'tiboran ikki yil muddatga yer solig'i to'lashdan ozod qilinadi.

Dehqon xo'jaligining faoliyati xo'jaliki a'zolarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Dehqon xo'jaligidagi muayyan ishni bajarishga boshqa shaxslar mehnat shartnomasi asosida vaqtincha jalb etilishi mumkin. Qonunga muvofiq tovar qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish uchun dehqon xo'jaligida sarflangan ish vaqti O'zbekiston Respublikasi Budjetdan tashqari nafaqa jamg'armasi badallari to'lab borilgan taqdirda mehnat stajiga kiritiladi.

Dehqon xo'jaligi quyidagi holatlarda tugatiladi:

- xo'jaligi faoliyatini davom ettirish istagida bo'lgan bironta ham xo'jaligi a'zosi qolmaganda;

- tomorqa yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqidan ixtiyoriy voz kechilganda;

- dehqon xo'jaligi a'zolarining qaroriga binoan;

- qonun hujj atlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda sudning qaroriga binoan.

Dehqon xo'jaligi o'z majburiyatlari bo'yicha qonunlarga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan mol-mulki bilan javob beradi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2008-yil yakuni bo'yicha respublikamizda 4703,4 mingta dehqon xo'jaliklari faoliyat ko'rsatgan va ular qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 65,1 foizini, o'simlikchilik yalpi mahsulotining 44,3 foizini va chorvachilik yalpi mahsulotining 92,4 foizini yetishtirib bergan (1-jadval).

O'tgan 2002-2008-yillar oralig'ida dehqon xo'jaliklarida don ishlab chiqarish 150,6 foizga, kartoshka 169,5 foizga, sabzavotlar 154,0 foizga, poliz 165,3 foizga, go'sht yetishtirish 255,4 foizga, sut 148,1 foizga, tuxum 196,6 foizga o'sganini qayd etib o'tish joiz.

Keyingi yillarda shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida chorva mollari bosh sonini ko'paytirish borasida yirik tadbirlar amalga oshirildi. Ammo, ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramay dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish hamda mustahkamlash, birinchi navbatda, qoramol boqish va yetishtirish, shu asosda qishloq aholisining bandlik darajasini ko'tarish va oilalar daromadini oshirishning mavjud imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayapti. Xo'jaliklarni zotdor, syermahsul chorva mol bilan, omuxta yem va shirali ozuqa bilan ta'minlash borasidagi ishlar, zoovyeteryinariya va boshqa syervis xizmatlari ko'rsatish bo'yicha infratuzilma tarmoqlari, shuningdek shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida chorvachilikni rivojlantirishni mikro kreditlash tizimi yetarlicha yo'lga qo'yilmagan.

Dehqon xo'jaliklari mamlakatni go'sht, sut, tuxum, jun kabi chorvachilik mahsulotlari, kartoshka, sabzavot, poliz, meva va uzum kabi o'simlikchilik mahsulotlari bilan ta'minlovchi asosiy xo'jaligi yuritish shakllaridan biri bo'lib qolmoqda.

Agrar tarmoqda mavjud bo'lgan ilgari tomorqa xo'jaliklari o'rnida bugungi kunga kelib dehqon xo'jaliklari tashkil etila boshlandi. Bu bilan tomorqa xo'jaliklari ham tugatilgani yo'q. Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklarini ko'p hollarda dehqon xo'jaligi, jismoniy shaxs maqomiga ega dehqon xo'jaliklarini esa tomorqa xo'jaliklari deya bir-biridan ajratish qulayroq bo'lmoqda, shu bois amaliyotda dehqon xo'jaliklari kamroq, tomorqa xo'jaliklari esa ko'proq uchramoqda.

Dehqon xo'jaligi oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomarqa yer uchastkasidan qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtiradi va realizasiya qiladi.

Dehqon xo'jaligi faoliyat tadbirkorlik faoliyatlarining istagiga ko'ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Dehqon xo'jaligi o'z faoliyatida yollanma mehnatdan doimiy asosda foydalanishi mumkin emas.

Dehqon xo'jaliklarni tashkil etish, ularning faoliyati va tugatilishi bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasi «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonun hamda boshqa qonun-hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Dehqon xo'jaligi ixtiyoriylik asosida, xo'jalik boshlig'ining qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) boshqaruviga yoxud boshqa qishloq xo'jalik korxonalarini, muassasalari va tashkilotlari ish beruvchisiga (ma'muriyatiga) hamda tuman hokimiga yozma murojatiga asosan

tashkil etiladi. Arizada so'ralayotgan yer uchastkasining joylashgan manzili, maydoni, dehqon xo'jaligining tarkibi hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish uchun yer uchastkasidan belgilangan maqsadda foydalanishning yo'nalishlari ko'rsatiladi.

Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) boshqaruvi dehqon xo'jaligini tashkil etish to'g'risidagi masalani umumiy majlis muhokamasiga kiritadi, majlis bu xususida tegishli qaror qabul qiladi. Boshqa qishloq xo'jalik korxonalari, muassasalari va tashkilotlarida dehqon xo'jaligini tashkil etish to'g'risidagi qaror shu korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning yuqori tashkilot organlari, ish beruvchi (ma'muriyati) tomonidan qabul qilinadi.

Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) umumiy majlisining va boshqa qishloq xo'jalik korxonasi, muassasasi va tashkiloti yuqori boshqaruv organi, ish beruvchisining (ma'muriyatining) qarori asosida yer uchastkalari berish masalalarini ko'rish bo'yicha tuman komissiyasining xulosasini inobotga olgan holda tuman hokimi dehqon xo'jaligi tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Tuman hokimining dehqon xo'jaligini tashkil etish to'g'risidagi qarori tumanning moliyaviy, bank, soliq va boshqa tuzilmalari uchun majburiy hujjatdir.

Dehqon xo'jaligi belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan paytdan e'tiboran tashkil etilgan deb hisoblanadi.

Dehqon xo'jaligi boshlig'ini doimiy yashash joyidagi tuman hokimligi tomonidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan zarur hujjatlar bilan birgalikda ariza berilgan kundan e'tiboran uch kun ichida amalga oshiriladi. Dehqon xo'jaligi boshligiga yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjati hamda davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risidagi belgilangan namunadagi guvohnoma beriladi.

Agar davlat ro'yxatiga olish belgilangan muddatda amalga oshirilmagan yoki dehqon xo'jaligi boshlig'i asossiz deb hisoblaydigan sabablarga ko'ra rad etilgan bo'lsa, xo'jalik boshlig'i sudga murojaat etishi mumkin.

Posyolka, qishloq va ovul fuqarolari o'zini o'zi boshqarish organlari har bir dehqon xo'jaligini xo'jalik kitobiga kiritib, unda dehqon xo'jaligining tarkibi, xo'jalik boshlig'i yoxud uning vazifasini bajaruvchi shaxs, shuningdek xo'jalikning tashkiliy - huquqiy shakli (yuridik shaxs tashkil etgan holda yoki yuridik shaxs etmasdan) to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd etib qo'yadi.

Dehqon xo'jaliklari davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik yig'imini to'lashdan ozod qilinadi.

Dehqon xo'jaligi a'zolari jumlasiga birgalikda yashayotgan va dehqon xo'jaligini birgalikda yuritayotgan oila boshlig'i, uning xotini (eri), bolalari, shu jumladan farzandlikka olingan bolalari, tarbiyaga olgan bolalari, ota-onalari, mehnatga qobiliyatli yoshga yetgan boshqa qarindoshlari kiradi.

Yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro munosabatlarda dehqon xo'jaligi shu xo'jalik boshlig'i ish ko'radi.

Dehqon xo'jaligi boshlig'i qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yer uchastkasiga meros kilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi berilgan oila boshlig'i yoki oilaning muomilaga layoqatli a'zolaridan biridir.

Dehqon xo'jaligining boshlig'i vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotgan taqdirda yoki uzoq vaqt bo'lmagan u o'z majburiyatlarini bajarish vakolatini shu xo'jalik a'zolaridan biriga, dehqon xo'jaligining a'zosi bir kishidan iborat bo'lganda esa, shartnoma asosida har qanday shaxsga berishga haqlidir.

Dehqon xo'jaligi o'z faoliyati yo'nalishlarini, ishlab chiqarish faoliyatini va hajmlarini mustaqil ravishda belgilaydi. Dehqon xo'jaligi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining qonunlarda ta'qiqlanmagan har qanday turi, shuningdek qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash va realizasiya qilish bilan shug'ullanishga haqli.

Dehqon xo'jaligi o'zi yetishtirayotgan va realizasiya qilayotgan mahsulot sifatiga oid amaldagi me'yor va standartlarga, ekologiyaga, sanitariyaga oid hamda qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan boshqa talab va qoidalarga rioya etishi shart.

Dehqon xo'jaliklarining xo'jalik faoliyatiga davlat organlari tashkilotlarining hamda boshqa organlar va tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining aralashuviga yo'l

qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan xollar bundan mustasno.

Davlat organlari va tashkilotlarining hamda boshqa organlar va tashkilotlarning, ular mansabdor shaxs va fuqarolarning g'ayri hislarining qonuniy hatti harakatlari (qarorlari) natijasida, shuningdek bunday organlar, tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining dehqon xo'jaligiga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarmasliklari oqibatida dehqon xo'jaligiga yetkazilgann zararlar, shu jumladan boy berilgan foyda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishi kerak.

Yuridik shaxs sifatida ro'yxatga olingan dehqon xo'jaligi tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqa shakllarda xo'jalik yurituvchi korxonalar bilan teng shartlarda amalga oshiradi.

Dehqon xo'jaligining faoliyati xo'jalik a'zolarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Dehqon xo'jaligidagi muayyan ishni bajarishga boshqa shaxslar mehnat shartnomasi asosida vaqtincha jalb etilishi mumkin.

Dehqon xo'jaligining a'zolari dehqon xo'jaligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasiga badallar to'lab borayotgan dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnat faoliyati hisobini dehqon xo'jaligi boshlig'i yuritadi.

Dehqon xo'jaligida ishlangan vaqt davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha badallar to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasining tuman bo'limida mehnat daftarchasini belgilangan tartibda rasmiylashtirgan holda mehnat stajiga qo'shiladi.

Qishloq xo'jaligi kooperativida (shirkat xo'jaligida), boshqa qishloq xo'jaligi yoki o'rmon xo'jaligi korxonasi, muassasasi, tashkilotida ishlayotgan dehqon xo'jaligi a'zosining mehnat faoliyati hamda davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha badallar to'lashi hisobini yuritish qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi), boshqa qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi korxonasi muassasasi, tashkiloti tomonidan ham, dehqon xo'jaligi tomonidan ham amalga oshiriladi.

Dehqon xo'jaligi a'zolariga ijtimoiy sug'urta bo'yicha davlat nafaqalari va pensiyalar tayinlash hamda to'lash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda amalga oshiriladi.

Dehqon xo'jaligi o'zi yetishtirayotgan mahsulotni realizatsiya qilish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan ixtiyoriylik asosida xo'jalik shartnomalari tuzish huquqiga ega. Taraflar shartnoma majburiyatlari buzilgan taqdirda, qonun hujjatlarida yoki shartnoma belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Dehqon xo'jaligi o'zi yetishtirayotgan mahsulotga bozordagi talab va taklif nisbatidan kelib chiqib mustaqil ravishda baho belgilaydi.

Dehqon xo'jaliklari ixtiyoriylik asosida, shu jumladan ulushli (pay) asosda mahsulot yetishtirish, harid qilish, uni qayta ishlash va sotish, moddiy texnika ta'minoti, qurilish, texnikaviy, suv xo'jaligi, veterinariya, agrokimyo, maslahat berish yo'sinidagi va boshqa xil xizmat ko'rsatish bo'yicha kooperativlarga (shirkatlarga), jamiyatlarga, ittifoqlarga, uyushmalarga va boshqa birlashmalarga birlashish, kirish huquqiga ega.

Dehqon xo'jaliklarining tomorqa yer uchastkasi va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan shakllarida yer bilan bog'liq munosabatlar qanday amalga oshirilishi haqida so'z yuritamiz.

Tomorqa yer uchastkasi - qishloq xo'jalik mahsulotini erkin savdo hamda oila ehtiyojlari uchun yetishtirish, yakka tartibdagi uy-joy qurilishi hamda biriga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va o'lchamlarda ajratib beriladigan yer uchastkasidir.

Tomorqa yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjati bilan guvohlantiriladi.

Qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) a'zolarining, boshqa qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari xodimlarining oilalariga, shuningdek qishloq joylarda yashovchi o'qituvchilar, shifokorlar va boshqa mutaxassislarining oilalariga dehqon xo'jaligi yuritish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga tomorqa yer uchastkasi imorat va hovli egallagan maydonni ham qo'shganda sug'oriladigan yerlarda 0,35 gektargacha va sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlarda 0,5 gektargacha o'lchamda, cho'l va sahro mintaqasida esa sug'orilmaydigan

(lalmikor) yerlarda 1 gektargacha o'lchamda beriladi.

Fuqarolarga dehqon xo'jaligi yuritish uchun 0,06 gektar doirasida tomorqa yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi kim oshdi savdosi asosida realizasiya qilinishi mumkin.

Dehqon xo'jaligiga tomorqa yer uchastkasi berish to'g'risidagi qaror dehqon xo'jaligini tashkil etish to'g'risidagi qaror bilan bir vaqtda qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) umumiy majlisining, boshqa qishloq xo'jalik korxonasi, muassasasi va tashkilotining yuqori boshqaruv organining, ish beruvchisining (ma'muriyatining) qarori asosida tuman hokimi tomonidan qabul qilinadi.

Yangi tashkil etilayotgan dehqon xo'jaligi uchun tomorqa yer uchastkasi olish huquqidan mazkur joyda kamida uch yil mobaynida doimiy yashab kelayotgan shaxslar foydalanadilar (yangi o'zlashtirilayotgan yer maydonlari bundan mustasno).

Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) boshqaruvining, boshqa qishloq xo'jalik korxonasi, muassasasi va tashkiloti boshqaruv organining, ish beruvchisining (ma'muriyatining) hamda tuman hokimining dehqon xo'jaligi tashkil etish uchun tomorqa yer uchastkasi berishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Dehqon xo'jaligiga ajratilgan yerning chegaralari naturada (joyning o'zida) yer tuzish xizmati organlari tomonidan mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan rasmiylashtiriladi.

Tomorqa yer uchastkasidan oqilona va samarali foydalanayotgan dehqon xo'jaligiga qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) boshqaruvi tomonidan umumiy majlisning qarori asosida, boshqa qishloq xo'jalik korxonasi, muassasasi va tashkiloti yuqori boshqaruv organi, ish beruvchisi (ma'muriyati) tomonidan qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtirish va realizasiya qilish, yem ishlab chiqarishni tashkil etish, shuningdek yaylov yaratish uchun qisqa muddatli ijaraga qo'shimcha ravishda yer uchastkalari berilishi mumkin.

Fuqarolarga dehqon xo'jaligi yuritish uchun yer berish yoki yerni realizasiya qilish tartibi O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, ushbu qonun va qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Dehqon xo'jaligining yerga egalik qilish va yerdan foydalanish sohasidagi huquq va majburiyatlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Dehqon xo'jaligiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan tomorqa yer uchastkalari xususiyashtirilishi va oldi-sotdi, garov, hadya, ayirboshlash ob'yekti bo'lishi mumkin emas.

Tomorqa yer uchastkasining o'lchami va chegaralari faqat dehqon xo'jaligi boshlig'ining roziligi bilan o'zgartirilishi mumkin.

Dehqon xo'jaligi boshlig'i vafot etgan taqdirda, tomorqa yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi shu xo'jalik a'zolarining o'zaro kelishuvi asosida, davom ettirish istagi bo'lgan xo'jalik a'zolaridan biriga meros bo'yicha o'tadi. Dehqon xo'jaligi boshlig'i mehnat qobiliyatini to'la yo'qotgan taqdirda, yer uchastkasiga egalik qilish va undan foydalanish huquqi xo'jalik a'zolaridan biriga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda topshiriladi.

Dehqon xo'jaligiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi asosida berilgan tomorqa yer uchastkasidan foydalanganlik uchun haq yer solig'i tariqasida undiriladi.

Dehqon xo'jaliklari uchun suvdan foydalanish limitlari uchun suvdan foydalanish limitlari vakolatli organlar tomonidan belgilangan.

Dehqon xo'jaligiga beriladigan suvning sarfini olish hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash tartibi, shuningdek mazkur soliq bo'yicha imtiyozlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Dehqon xo'jaligi tadbirkorlik faoliyatining suyekti tariqasida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagi huquqlarga ega:

- > o'ziga berilgan tomorqa yer uchastkasida dehqon xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyatini mustaqil tashkil etish;
- > yetishtirilayotgan va realizasiya qilinayotgan mahsulotga mustaqil ravishda baho belgilash;
- > o'zi yetishtirgan mahsulotni, shu jumladan bu mahsulotni iste'molchilarga o'z

hohishi bo'yicha realizasiya qilish huquqini tasarruf etish;

- > harid etiladigan mahsulotga oldindan haq to'lanadigan f'yuchers bitimlari tuzish;
- > tadbirkorlikdan cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olish;
- > qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiruvchilarga sotish uchun va erkin savdogo mo'ljallangan aksiyalarni sotib olish;
- > o'z mol-mulkini, shuningdek tomorqa yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini, shu jumladan kim oshdi savdosi asosida sotib olingan huquqni garovga qo'yish.

Dehqon xo'jaligi quyidagilarni bajarishi shart:

- ❖ tomorqa yer uchastkasidan qat'iy belgilangan maqsadda foydalanish;
- ❖ tabiiy ob'yekt yerga zarar yetkazmaslik;
- ❖ tomorqa yer uchastkasini, asrash, uning unumdorligini saqlash va oshirish yuzasidan sarf-xarajatlar qilish;
- ❖ yangi berilgan yer uchastkasidan, agar qonun hujjatlarida boshqa muddat belgilangan bo'lmasa, bir yil ichida foydalanishga kirishish;
- ❖ agrotexnika talablariga, belgilangan rejim, saqlash vazifasi va servitutlarga rioya etish;
- ❖ dehqon xo'jaligining, majburiyatlari va arzlari bo'yicha to'la javobgar bo'lishi;
- ❖ xo'jalik a'zolari uchun havfsiz mehnat sharoitini ta'minlash.

Qonun majburiyatlarida dehqon xo'jaligining boshqa huquq va majburiyatlari ham nazarda tutilishi mumkin.

Dehqon xo'jaligi boshlig'i quyidagi huquqlarga ega:

- > dehqon xo'jaligi nomidan;
- > yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish;
- > ishonchnomalar berish;
- > bankda hisob-varaqalar ochish.

Dehqon xo'jaligi boshlig'i dehqon xo'jaligining hamda uning a'zolarining manfaatlari himoya qilinishi va huquqlari amalga oshirilishini ta'minlashi shart.

Dehqon xo'jaligi boshlig'i qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquq va majburiyatlarga ham ega bo'lish mumkin.

Dehqon xo'jaligi a'zolari:

- ❖ xo'jalik a'zolari o'rtasidagi shartnoma shartlariga ko'ra birgalikda yoki yakka tartibda foydalaniladigan daromaddan o'z ulushini olish;
- ❖ qonun hujjatlariga muvofiq davlat ijtimoiy sug'urtasi o'tkazilish va ijtimoiy ta'minlanish, shuningdek tovar qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish uchun dehqon xo'jaligida sarflangan ish vaqti O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi hududidagi Pensiya jamg'armasiga badallar to'lab borilgan taqdirda mehnat stajiga kiritilishi huquqiga ega.

Dehqon xo'jaligi a'zolari dehqon xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyatida shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishi shart.

Qonun hujjatlarida dehqon xo'jaligi a'zolarining boshqa huquq va majburiyatlari ham nazarda tutilishi mumkin.

Dehqon xo'jaligi:

- > o'ziga qarashli uy-joylar, xo'jalik imoratlari, qishloq xo'jalik ekinzorlari va ko'chatzorlari, dov-daraxtlar, mahsuldor chorva mollar, parrandalar, qishloq xo'jalik texnikasi, asbob-uskuna va ashyo-anjomlari, transport vositalari, pul mablag'lari, intellektual mulk ob'yektlariga, shuningdek boshqa mol-mulklarga;
- > ishlab chiqarish faoliyatini natijasida yetishtirilgan mahsulotga;
- > olingan daromadga (foydaga);
- > qonunda ta'qiqlanmagan asoslarda ega bo'lgan boshqa mol-mulkka mulkdordir.

Dehqon xo'jaligining o'ziga qarashli mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi davlat himoyasidadir.

Dehqon xo'jaligining mol-mulki, agar uning a'zolari o'rtasidagi kelishuvga binoan umumiy

ulushli mulk tashkil etish nazarda tutilgan bo'lmasa, uning a'zolariga umumiy birgalikdagi mulk asosida qarashli bo'ladi.

Dehqon xo'jaligining mol-mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish xo'jalik a'zolarining o'zaro kelishuvi asosida amalga oshiriladi.

Dehqon xo'jaligi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mol-mulkni hosil qilish, ko'paytirish, olish, uni ijaraga yoki vaqtincha foydalanishga olish huquqiga ega.

Dehqon xo'jaligi pul muomilasini yuritish hamda pul mablag'larini saqlab turish va bu mablag'larni erkin tasarruf etish uchun bank muassasida hisob-varaqalar ochish huquqiga ega. Dehqon xo'jaligining hisob-kitob hisob-varag'idan mablag'larni faqat uning roziligi yoki sudning qarori bilan hisobdan chiqarish mumkin.

Dehqon xo'jaligining mol-mulki fuqarolik qonun hujjatlari me'yorlariga muvofiq meros qilib qoldiriladi. Xo'jalik faoliyatini ettirayotgan merosxo'rlar meros huquqi to'g'risidagi guvohnoma berilganlik uchun davlat boji to'lashdan ozod etiladilar.

Yuridik shaxs tashkil etgan holda hamda yuridik shaxs tashkil etmasdan tuzilgan dehqon xo'jaligi qonun hujjatlariga muvofiq yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol- mulk solig'i to'laydi.

Dehqon xo'jaligidan yer solig'i tomorqa yer uchastkalarining sifatiga, joylashgan manziliga va suv bilan ta'minlanish darajasiga qarab, uning kadastr bahosini hisobga olgan holda belgilanadigan miqdorda undiriladi. Soliq solish tartibi hamda dehqon xo'jaligi to'laydigan yer solig'ining stavkalari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Birinchi marta tomorqa yer uchastkasi olgan dehqon xo'jaligi davlat ro'yxatiga olingan paytdan e'tiboran ikki yil muddatga yer solig'i to'lashdan ozod qilinadi.

Yuridik shaxs tashkil etgan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari faoliyatni amalga oshirish uchun kredit olishlari, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki va pul mablag'larini ixtiyoriylik asosida va shartnoma shartlarida, shu jumladan dehqon xo'jaliklarini kreditni uzishning zarur garov, sug'urta hamda boshqa kafolatlarini ta'minlangan holda imtiyozli kreditlashga jalb etishlari, shuningdek xususiy kichik tadbirkorlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlarning barcha turlaridan foydalanishlari mumkin.

Dehqon xo'jaliklarini ishlab chiqarish ahamiyatiga molik ob'yektlar qurilishi, asosiy ishlab chiqarish vositalarini harid etish uchun uzoq muddatli kreditlash va joriy ishlab chiqarish faoliyati uchun muddatli kreditlash kredit shartnomasi asosida oshiriladi.

Dehqon xo'jaligi o'ziga qarashli va ijaraga olingan ishlab chiqarish vositalarining, qishloq xo'jaligi ekinzorlarining (ko'chatzorlarining), ko'p yil dov-daraxtlarning, yetishtirilgan mahsulotining, xom-ashyoning, materillarning yo'qotilishi (nobud bo'lishi), kam chiqishi yoki shikastlanishi havfini, tadbirkorlik havfini, shuningdek shartnomalarni buzganlik uchun o'zining javobgarlik havfini ixtiyoriylik asosida sug'urta qildiradi hamda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda sug'urta to'voni oladi.

Davlat qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish va uni realizasiya qilish bilan shug'ullanuvchi dehqon xo'jaliklarining huquqlariga rioya etilishini va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini kafolatlaydi. Davlat organlari dehqon xo'jaligini rivojlantirish va mustahkamlashga ko'maklashishlari lozim.

Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, posyolka, qishloq va ovul fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari, qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda:

> ishlab chiqarish va ijtimoiy-maishiy ahamiyatga molik ob'yektlari bo'lmagan hududda dehqon xo'jaliklari tashkil etilganida uni birlamchi obodonlashtirish (yo'llar, elektr uzatish va aloqa liniyalari qurish, suv bilan ta'minlash, gazlashtirish, telefonlashtirish, radiolashtirish, yer tuzish, yerlarni meliorasiyalash) ishlarini amalga oshiradi;

> dehqon xo'jaliklariga ishlab chiqarish ob'yektlari va turar joylarni barpo etishda yordam ko'rsatadi;

> dehqon xo'jaligi uchun kerakli mol-mulk va ishlab chiqarish vositalarini birjalarda yarmarkalarda, bozorlarda yuridik va jismoniy shaxslardan olishda ko'maklashadi;

> navli urug'lik va qishloq xo'jalik ekinlarining ko'chat materillarini, organik va

mineral o'g'itlarni, qishloq xo'jalik ekinlarini zararkunandalar va kasalliklardan himoya qilish vositalarini yetkazib berish yuzasidan davlat agrotexnika xizmati ko'rsatish tizimi orqali texnikaviy tizim ko'rsatadi;

> qishloq xo'jaligi texnikasi, asbob-uskunalari va ashyo-anjomlarini lizing asosida olishda ko'maklashadi;

> chorva mollar va parrandalar boqish uchun shartnoma asosida aralash ozuqa ajratadi, yosh chorva mollar va parrandalar, zotdor qoramollar olishda ko'maklashadi;

> dehqon xo'jaliklarining chorva mollariga zoovetirinariya xizmati ko'rsatish uchun zarur sharoitlar yaratadi;

> dehqon xo'jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotini tayyorlash va realizatsiya qilishda ko'maklashadi;

> konsalting va axborot xizmatlari ko'rsatadi.

Dehqon xo'jaliklari faoliyatini muvofiqlashtirib borish hamda ulrning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish O'zbekiston Dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi hamda Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi hamda ularning joylardagi hududiy organlari tomonidan amalga oshiradi.

Qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari dehqon xo'jaligiga berilgan yerlardan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshiradilar hamda yerdan samarali foydalanishini ta'minlash yuzasidan zarur choralar ko'radilar.

Dehqon xo'jaligi o'z faoliyatini natijalarini hisobga olib boradi.

Dehqon xo'jaligi quyidagi hollarda tugatiladi (faoliyati to'xtatiladi):

> xo'jalik faoliyatini davom ettirish istagida bo'lgan bironta ham xo'jalik a'zosi yoki merosxo'r qolmagan bo'lsa;

> tomorqa yer uchastkasiga meros qilib qoldiradigan umrbod egalik qilish huquqidan ixtiyoriy voz kechilganda;

> tomorqa yer uchastkasi qonunda belgilalangan tartibda olib qo'yilganda;

> belgilangan soliqlar muttasil to'lanmaganda;

> agar qonun hujjatlarida boshqa muddat belgilanmagan bo'lmasa, yangi berilgan tomorqa yer uchastkasidan bir yil mobaynida foydalanishga kirishmagan taqdirda;

> dehqon xo'jaliklari faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari bir necha marta yoki qo'pol ravishda buzilganda.

Dehqon xo'jaligi:

❖ dehqon xo'jaligi a'zolarining qaroriga binoan;

❖ qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda sudning qaroriga binoan tugatiladi (faoliyati to'xtatiladi).

Dehqon xo'jaligini tugatish (faoliyatini to'xtatish) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

#### **4 Agrofirma faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va boshqarish asoslari.**

Agrosanoat birlashmalari - qishloq xo'jalik va sanoat birlashmasining ancha murakkab shaklidir. Unda bevosita qishloq xo'jalik xom ashyosini ishlab chiqarish bilan uni sanoat qayta ishlashi korxonaning o'zida o'zviy jihatdan qo'shilib ketadi, ayrim hollarda ishlab chiqarish va qayta ishlash bilan bir qatorda mahsulotni sotadilar ham. Ular ham asosan ishlab chiqarish va qayta ishlash sferasida mavsumiy xarakterga ega bo'lgan tez buziladigan va qisqa masofalarga tashiluvchi mahsulotlarda vujudga keltiriladi. Birlashma tartibiga kirgan korxonalar tashkiliy - iqtisodiy faoliyatidagi bosh xususiyat shundan iboratki, ularning ishlab chiqarish - moliyaviy mustaqilligi saqlanib qoladi, barcha o'zaro aloqalar, munosabatlar birlashma kengashi yagona boshqaruvida to'la xo'jalik hisobi asosida o'rnatiladi. Birlashmaga kiruvchi, mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash bilan band bo'lgan korxonalar, bir butun zanjirni tashkil qiladi, har bir zveno to'la ishlab chiqarish sikli bilan ma'lum texnologik jarayonni tashkil qiladi. Agrosanoat birlashmalarini tashkil qilishining asosiy tamoyili - qishloq xo'jalik ishlab chiqarish va uning mahsulotini qayta ishlovchi sanoatning qo'shilishi. Bunda birlashmaning bosh korxonasi qishloq xo'jalik mahsulotini qayta ishlovchi korxonaga hisoblanadi (qand, sabzavot konserva yoki meva konserva va boshqa korxonalar). Agrosanoat birlashmasi iqtisodiy mohiyatini aniqlaydigan, muhim shart - terrioriyaning bir - butunligi. Buning ma'nosi shuki, birlashma tarkibiga kiruvchi korxonalar xom ashyo bazasi hududiga joylashgan bo'lishi kerak. Bunda moddiy va mehnat resurslaridan birgalikda foydalanishga real imkoniyat tug'iladi. Shu bilan birga keyingi yillarda o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi, tayyorlovchi, qayta ishlashga va sotishga ixtisoslashgan, agrosanoat birlashmalari tashkil etilmokda. Ular tuman agrosanoat kengashlari bazasida tashkil etiladi.

Agrosanoat firmalari ham, agrosanoat birlashmalari bajargan vazifalarni amalga oshiradi, lekin farqi shuki miqdor jihatdan kichkina bo'ladi va bir xo'jalik bazasida tashkil qilish mumkin. Agrosanoat firmalari tarkibiga xo'jaliklar, xo'jaliklararo korxonalar va boshqa davlat qishloq xo'jaligi korxonalarini qishloq xo'jalik mahsulotlarini va xom ashyosini qayta ishlovchi korxonalar, agrofirma ishlab chiqargan go'sht, sut va boshqa mahsulotlarni sotadigan tashkilotlar va korxonalar, shuningdek aholi bilan shartnoma asosida tayyorlanadigan, xalq xunarmandchiligi mahsulotlari kiradi. Agrofirma faoliyatiga shartnoma asosida xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari korxonaga va tashkilotlari qatnashishi mumkin. Agrofirma faoliyati agrofirma va uning tarkibiga kiruvchi korxonaga va tashkilotlarining manfaatlariga rioya qilgan holda ko'riladi. Agrofirma yagona ishlab chiqarish kompleksi sifatida harakat qiladi va agrofirma manfaatlarini bilan mehnat kollektivlarining tashabbuskorligi va tadbirkorligini qo'shib olib borish uchun zarur sharoit bilan ta'minlaydi. Agrofirma tarkibiga kiruvchi kolxozlar, sovxozlar, xo'jaliklararo, qayta ishlovchi va boshqa korxonaga va tashkilotlar o'zlarining xo'jalik mustaqilligi va yuridik shaxs sifatida huquqini saqlab qoladilar. Shu bilan birga, mustaqil bo'lmagan korxonaga va tashkilotlar singari, qayta ishlovchi, savdo va tayyorlov korxonaga va tashkilotlar agrofirma tarkibiga kirishi mumkin. Agrofirma tarkibiga kiruvchi korxonaga va tashkilotlar, undan erkin chiqib ketish huquqiga ega. Agrosanoat firmasining asosiy vazifalari quyidagilar:

1) Agrosanoat firmasining tarkibiga kiruvchi barcha korxonaga va tashkilotlarning tashkiliy birligini va proporsionalligini ta'minlash.

2) Xo'jalik yuritishning bozor mexanizmi asosida mahsulotni ishlab chiqarish, tayyorlash, qayta ishlash va sotishni amalga oshirish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari bazasida yuqori sifatli oziq-ovqat va nooziq ovqat xalq iste'moli tovarlari va qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish.

3) Qishloq xo'jalik xom ashyosini saqlash, qayta ishlashning moddiy texnika bazasini rivojlantirish, tayyor mahsulotni va yarim - fabrikatini sotish.

4) Agrosanoat firmasi ehtiyoji uchun qishloq xo'jalik mahsulotini tayyorlash, boshqa xo'jalik korxonaga va tashkilot, aholidan sotib olishni tashkil qilish.

5) O'zining qishloq xo'jalik, oziq-ovqat va sanoat tovarlarini savdo shahobchalari va jamoa xo'jaligi bozorlari orqali sotishni tashkil qilish.

6) Mehnat, yer, moddiy va moliyaviy resurslardan va bank kreditlardan samarali foydalanishni ta'minlash.

7) Shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni, fuqarolarning individual mehnat faoliyatini rivojlantirish uchun tadbirlarni amalga oshirish, ularga har tomonlama yordam ko'rsatish.

8) Yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlarni keng assortimentda ishlab chiqish va uni yangilash, barcha qishloq xo'jalik mahsulotlardan chiqimsiz, to'liq foydalanishni ta'minlash.

9) Barcha tarmoqlarda mamlakatdagi va xorijdagi fan yutuqlarini, ilg'or tajribalarini, zamonaviy texnika va texnologiyani o'zlashtirish.

10) Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish, uni saqlash, qayta ishlash va sotish samaradorligini oshirish, qishloqda sosial qayta ko'rishni ta'minlash.

Agrosanoat firmasini boshqarish demokratik asosda amalga oshiriladi. Agrosanoat firmasining kundalik faoliyatiga rahbarlikni vakil qilinganlar yig'ilishida saylangan boshqaruv apparati amalga oshiradi. Boshqaruv apparatini, agrofirma korxonasi va tashkilotlarining rahbarlaridan vakil qilinganlar yig'ilishida saylangan, agrosanoat firmasi raisi boshqaradi. Agrosanoat firmasi tarkibiga kiruvchi korxonasi va tashkilotlar ishlab chiqargan qishloq xo'jalik va sanoat mahsuloti davlat buyurtmasi hisobiga (erkin savdo orqali, bozorda sotilgandan tashqari) davlat bahosi bo'yicha sotiladi. Agrosanoat firmasi matlubot kooperatsiyalari tashkilotlariga va bozorga shartnomali baholarda, firma magazinlari va do'konlarga - agrosanoat firmasi o'rnatgan baholarda sotadi. Agrosanoat kombinatlari, asosan ma'muriy tuman masshtabida barpo qilinadi. U qishloq xo'jalik mahsulotini ishlab chiqarishni integratsiya va kombinatsiyalash asosida tayyorlash, qayta ishlash, tashish, saqlash va sotishni amalga oshiruvchi ishlab chiqarish komplekslaridir. Shunday qilib, agrosanoat kombinatlari faqat qishloq xo'jalik xom ashyosini yetkazib qolmasdan, balki pirovord (tayyor) mahsulot ishlab chiqaruvchi hamdir.

Agrosanoat kombinatlari tarkibiga xo'jaliklar, xo'jaliklararo korxonalar, matlubot kooperatsiyasi korxonalari, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatuvchi korxonasi va tashkilotlar, qayta ishlash, sanoati korxonalari, qurilish va transport tashkilotlari, yangi yoki qayta ishlangan holatda mahsulotlarni sotuvchi, ixtisoslashgan sanoat korxonalari kiradi. Agrosanoat kombinatlari tarkibiga kiruvchi, jamoa xo'jaligi va boshqa korxonasi va tashkilotlar o'zlarining xo'jalik mustaqilligini va yuridik shaxs sifatidagi huquqini saqlab qoladilar. Kombinatda korxonasi va tashkilotlar o'rtasidagi aloqalar shartnoma asosida amalga oshiriladi. Agrosanoat kombinatlarining asosiy vazifalari agrosanoat firmasining vazifalari bilan deyarli bir xil. Kombinatning oliy boshqaruv organi kengash hisoblanadi. Kengashga bosh direktor - kengash raisi, uning muovini, kombinat tarkibiga kiruvchi, korxonasi va tashkilot rahbarlari, mehnat kollektivlari vaqillari kiradi. Agrosanoat kombinatlari moliyaviy faoliyatidan asosan, muhim rolni ularning ko'pchiligida tashkil etilgan moliyaviy hisoblash markazlari o'ynaydi. Ular moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiradi, birinchidan, kombinat ichidagi korxonasi va tashkilotlar o'rtasida, ikkinchidan, kombinat korxonasi va tashkilotlari va agrosanoat - banki o'rtasida, uchinchidan, kombinatning korxonasi va tashkilotlari va chetdagi tashkilotlar - ta'minotchi, tayyorlov - sotish, qayta ishlovchi, savdo va boshqalar - o'rtasida.

Ilmiy texnika taraqqiyotining jadal sur'atlarda o'sishi qishloq xo'jaligi va sanoat korxonalarining ilmiy muassasalar bilan hamkorlik qilishi (integratsiya)ga olib kelmoqda. Bunday hamkorlik agrosanoat uyushmalarining samarali shakllarini vujudga keltirgan. Bunga ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari misol bo'la oladi. Bunda ishlab chiqarish yagona tadqiqot, ilmiy izlanish va ishlab chiqarish tizimiga birlashgan bo'ladi. Ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarini barpo qilishning ob'yektiv zaruriyati shundan iboratki, hozirgi bosqichda alohida korxonalar qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishi fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini kuzatib borish imkoniyatiga ko'pincha ega emaslar, shu bois birlashmaning asosiy ilmiy tadqiqot natijalarini alohida ilg'or texnologiyalarni joriy qilish lozim. Birlashma bir ma'muriy tuman, yoki turli ma'muriy - hududiy masshtabda tashkil etilishi mumkin. Birlashmaning boshida tarmoq yoki hudud ko'rsatkichlari o'rtacha darajadan yuqori, mustahkam bo'lgan, ilg'or korxonalar, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida ancha ilg'or texnologiyani qo'llaydigan ilmiy muassasalar va boshqa tashkilotlar turishi mumkin.

Birlashmaning barcha korxonalar va tashkilotlari o'zlarining xo'jalik mustaqilligini va yuridik shaxs huquqini saqlab qoladilar.

Ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarining asosiy vazifalari- qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining tegishli tarmoqlarida ilmiy texnika taraqqiyotini tezlashtirish va fan-texnika yutuqlarini, yangiliklarni keng amaliyotga joriy etish, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil qilishni takomillashtirish, mahsulot ishlab chiqarishga resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash, qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini va chorvachilik mahsuldorligini to'xtovsiz o'stirish uchun seleksiya va urug'chilikni, mollarning zotini yaxshilash, ma'lum turdagi mahsulot turlarini ishlab chiqarishda yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishish.

Birlashmaga rahbarlikni birlashma kengashi amalga oshiradi. Unga bosh korxonalar rahbari, uning muovini, xo'jaliklar raislari va boshqa korxonalar va tashkilotlarining rahbarlari, shuningdek birlashma tashkil qilingan tarmoqdagi yetakchi mutaxassislar va ilmiy xodimlar kiradi. Bosh korxonalar rahbari birlashma kengashining raisi hisoblanadi.

Bosh korxonaning huquq va majburiyatlari quyidagilar:

1. Intensiv texnologiyani korxonalar - ishtirokchilarda joriy qilishni ishlab chiqish, tashkil qilish va takomillashtirish;

2. Birlashma faoliyati uchun korxonalar ishtirokchilarini zarur moddiy - texnika vositalar bilan ta'minlashni tashkil qilish;

3. Ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlarini qidirish uchun zaruriy hisob-kitoblar va analizlar o'tkazish;

4. Ilmiy tadqiqot, loyiha - konstruktorlik va boshqa tashkilot korxonalar va muassasalar bilan sistemaning samarali faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq bo'lgan ilmiy ishlanmalarni va loyiha ishlarini joriy qilish, tadqiqotlar olib borish uchun shartnomalar tuzish.

5. Birlashma ishtirokchilari kadrlarining o'qitish va malakasini oshirish, shuningdek ma'lum mahsulot turlarini ishlab chiqarish masalalari bo'yicha mutaxassislariga yo'l - yo'riqlar berish.

Birlashma ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari quyidagilar:

1. Bosh korxonadan, shartnomada ko'rsatilgan, ishlab chiqarishni o'stirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirishni ta'minlashga yo'naltirilgan xizmat (ish turlari) ni olish;

2. Tavsiya qilinayotgan texnologiyaga qat'iy rioya qilish, bevosita uni joriy qilishni amalga oshirish;

3. Qarab chiqilgan ishlar texnologiyasini bajarish, ulardan texnologiya va texnik qoidalarga mos to'liq foydalanish uchun texnika va boshqa moddiy texnika resurslarini olishga o'z vaqtida buyurtma berish;

4. Ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarini malakali kadrlar bilan doimiy ta'minlash;

5. Bosh korxonaga tavsiya qilingan texnologiyani baholash va uni joriy qilish bilan bog'liq ma'lumotlarni yetkazib turish.

Birlashma bosh korxonasi xarajatlarini moliyalashtirish manbai ishtirokchilarining ishtirok etish natijalaridan ajratmalari va kirish badali shaklidagi ajratmalari hisoblanadi.

Seleksiya, urug'chilik, bo'rdoqichilik va boshqa mahsus mahsulotlar yetishtiruvchi birlashmalar tarmoqning o'ziga xos xususiyatlari, ishlab chiqarish hajmi va xo'jalikning joylashgan hududiga qarab tashkil etiladi. Bu xo'jaliklar ijtimoiy - iqtisodiy jihatdan juda muhim ahamiyat kasb etib, ishlab chiqarish munosabatlarining takomillashuviga hamda shahar va qishloq o'rtasidagi tafovutni kamaytirishga, natijada bu tafovutning yo'qolishiga olib keladi (Rivojlangan mamlakatlardagidek).

Nazorat uchun savollar:

1. Fermer xo'jaligiga qanday ta'rif beriladi?
2. Fermer xo'jaligini qo'llab quvvatlovchi qanday huquqiy hujjatlarni bilasiz?
3. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi nima?
4. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaligining qanday huquqiy asosi mavjud?
5. Fermer xo'jaligi rahbari qanday talablarga javob berishi kerak?

6. Dehqon xo'jaligiga qanday ta'rif beriladi?
7. Dehqon xo'jaligi qanday tashkil etiladi?
8. Agrofirma nima?
9. Agrofirma qanday boshqariladi?

#### GLOSSARIY

(Mavzu: Qishloq xo'jaligi korxonalarini faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari)

Fermer xo'jaligi / Фермерское хозяйство / Farm - ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'yektdir.

Dehqon xo'jaligi / Дехканское хозяйство / Dekhkan farm - oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti etishtiradi va realizatsiya qiladi".

Agrosanoat birlashmalari / Агропромышленное объединение / Agri-industrial unions - qishloq xo'jalik va sanoat birlashmasining ancha murakkab shaklidir.

Agrofirma / Агрофирма / Agrifirm - agrosanoat birlashmalari bajargan vazifalarni amalga oshiradi, lekin miqdor jihatdan kichkina bo'ladi va bir xo'jalik bazasida tashkil qilish mumkin.